

Uzbekistan Airways'da bolalar uchun Yangi yil bayrami bo'lib o'tdi

2025 26 Dekabr

Uzbekistan Airways bosh ofisiga eng aziz mehmonlar - "Qorboboga maktub" yangi yil tanlovida ishtirok etgan aviakompaniya xodimlarining farzandlari tashrif buyurishdi.



"Uzbekistan Airways" AJ Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan bayram tadbiri Qorbobo ishtirokida ertaknamo ruhda o'tdi. Yosh ishtirokchilar nafaqat o'zlarining ezgu tilaklari bilan o'rtoqlashdilar, balki sovg'alar ham oldilar – tanlov g'oliblari ham, boshqa barcha bolalar ham.



Bolalarning samimiy tabassumi va ko'zlaridagi haqiqiy quvonch bayramning asosiy ko'rkiga aylandi hamda Yangi yil – mo'jizalar, iliqlik va eng aziz insonlarga g'amxo'rlik payti ekanligini eslatdi.







 **UZBEKISTAN**
AIRWAYS













